

**BO'LAJAK SHIFOKORLARDA TAFAKKUR QILISH KO'NIKMASINI
RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI.**

Supichakov Xondamir Xamidovich

Andijon davlat tibbiyot institute

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo'lajak shifokorlarda tafakkur qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ayrim didaktik va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Unda tibbiy ta'lim jarayonida klinik tafakkur, tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish salohiyatini shakllantirish bo'yicha ilg'or metodlar, xususan, reflektiv yondashuv, klinik stsenariylar asosidagi o'qitish va SNAPPS modeli kabi interaktiv texnologiyalar asosida yondashuvlar ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *tafakkur qilish ko'nikmasi, tibbiy ta'lim, klinik tafakkur, refleksiya, SNAPPS modeli, interaktiv o'qitish, klinik fikrlash, shifokor kompetensiyasi, muammoli vaziyatlar, qaror qabul qilish.*

Annotation: *This article analyzes certain didactic and practical aspects of developing thinking skills in future doctors. It examines advanced methods for fostering clinical reasoning, analytical thinking, and decision-making abilities in complex situations within the medical education process — particularly through reflective approaches, teaching based on clinical scenarios, and interactive technologies such as the SNAPPS model.*

Keywords: *thinking skills, medical education, clinical reasoning, reflection, SNAPPS model, interactive teaching, clinical thinking, physician competence, problem situations, decision-making.*

Bugungi kunda tibbiy ta'lim tizimida zamonaviy talablar asosida shakllanayotgan asosiy vazifalardan biri — bo'lajak shifokorlarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, klinik vaziyatni baholash kabi muhim tafakkur ko'nikmalari bilan qurollantirishdir. Shifokor faoliyatida tafakkur qilish qobiliyati bemor holatini chuqur anglash, diagnostika algoritmini tanlash va individual yondashuv asosida muolaja yo'nalishini belgilashda beqiyos ahamiyatga ega.

Bo'lajak shifokorlarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim sharti fikrlash, ya'ni tafakkur qilish ko'nikmasini rivojlantirish va o'ziga xos dunyoqarashni shakllantirishdir. Aslida tafakkur insonni boshqa mavjudotlardan ayiruvchi, ustunligini ko'rsatuvchi muhim omildir. Insonning kognitiv madaniyati undagi kognitiv mulk asosida baholanadi. Kognitiv mulk – “kognitiv aqliy faoliyat mahsuli

bo'lib, ixtirochilik va mualliflik obyekti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san'at va ishlab chiqarish sohasida kognitiv faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar va boshqa aqliy mulk obyektlari kiradi". Shunday ekan, kognitiv kognitiv faoliyat mahsulini yaratish iqtidorini shakllantirish talabaning kognitiv madaniyatining hosilasi hisoblanadi. Kognitiv mulkni yarata olish uchun esa shaxsga bilim va ko'nikmalar kerak bo'ladi. Umuman olganda, fundamental bilimlar inson kognitiv madaniyatini shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Fikrlar ongning hosilasi hisoblanib, kognitiv ongni shakllantira bilish talabalarda yuksak kognitiv madaniyatni yuzaga chiqaradi. Insonning yuksak aqliy qobiliyati undagi kognitiv ong darajasini belgilab beradi.

Oksford universitetining professori Normanning fikricha, "kognitiv bilim – insoniyat uchun mavjud bo'lgan muammolarni yechishga qodir aql"dir [1]. Kognitiv bilim ning o'zi esa barqaror aqliy qobiliyat ekanligini amerikalik Barrows quyidagicha ifodalaydi: "Kognitiv bilim individning ma'lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir" [2]. Boshqa bir nemis olimi Shmidt kognitiv bilimning ijtimoiy vazifasi "ijtimoiy muammolarni oldindan ko'rish va uni prognoz qila olish ekanligini aytadi" [3]. Bo'lajak mutaxassislarining kognitiv -kognitiv salohiyati o'z sohasi bo'yicha futurologik funksiyani bajara olishi bilan o'lchanishi zarur. Bu mezon Amerika universitetlarida XX asrning boshlaridayoq amaliyotga kiritilgan. Shunday ekan, kognitiv bilim ni tafakkurdagi o'ziga xos jarayon ekanligini anglab yetish va unga shu jihatdan munosabatda bo'lish lozim.

Insonning kognitiv imkoniyatlarini ko'satib beruvchi, uning salohiyatini oshiruvchi shakl xotiradir. Xotira insonning bilish faoliyatidagi muhim zanjir bo'lib, u asosida narsa va hodisalar obrazi bir-biri bilan bog'lanadi va yangi bilimlar yaratiladi. Inson xotirasi bosqichma-bosqich, quyidan yuqoriga tomon olingan bilimlar, olib borilgan mashg'ulotlar asosida mustahkamlanadi va boyib boradi. Ba'zi mutafakkirlar fikricha, insoniyatning bugungi tamaddunidagi ulug'vorlik undagi o'ziga xos xususiyat – xotiraning mavjud ekanligidadir. Shu bois bo'lajak shifokorlarda kognitiv ko'nikmalarni yuksaltirishning muhim pedagogik vazifalaridan biri ilm oluvchida mustahkam va kuchli xotirani shakllantirishdir. Chunki kuchli xotira, teran tafakkur va ilm olish istagi unda kognitiv ongni yuzaga chiqaradi. Ijtimoiy jihatdan kognitivlik ehtiyojga bog'liq bo'lib, jamiyatning ilm-fanga ehtiyoji va talabi, ta'lim tizimining rivojlanganlik darajasi, texnika va texnologiyani mavjudligi va talabaning individual xususiyatlari kabi omillardan kelib chiqadi.

Insoniyat kognitiv madaniyatining mohiyatini anglash uchun uning shakllanish jarayonini ko'rib chiqishi zarur. Har bir ijtimoiy taraqqiyotda jamiyatlar o'ziga xos

kognitiv salohiyatga ega bo'lgan. Buni biz o'sha jamiyatlardagi tafakkur o'zgarishlaridan bilishimiz mumkin. Zero, insoniyat tafakkuri asrlar oshgani sayin kengaymoqda. Insoniyat kognitiv lashuv jarayonining asrlar davomida rivojlanishi natijasida kognitiv xarakter ham shakllandi. Kognitiv xarakter – aqliy qobiliyati, salohiyati, bilimi, tafakkuri, dunyoqarashi yuksalgan inson, olim, mutafakkirning individual hayotiy tamoyillariga ilmiy tamoyillarning ko'chishi va umumiy hayotiy-ilmiy me'yorlarning shakllanishidir. Bunga Suqrot, Aflotun, Nyuton, Volter, J.J.Russo, I.Kant, F.Nisshelarni misol keltirish mumkin. Bunday vaziyatda har bir jamiyat, xususan, jamiyatimiz ham yoshlarning aqliy qobiliyati va u asosda shakllanadigan ijtimoiy kognitiv lik xarakterini doimiy yuksaltirishi zarur [4].

Mamlakatimizda bo'lajak shifokorlarning kognitiv salohiyatini oshirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatish va shu orqali iqtisodiy yuksaklikka erishish vazifalari yuzaga chiqmoqda. Buning uchun esa bo'lajak shifokorlarda o'qitish jarayonida fundamental bilimlar berish bilan birga, kognitiv ko'nikmalarni ham rivojlantirish zarur.

Tafakkur uslubi talabaning o'z individual qobiliyatlaridan o'rin olgan kognitiv strategiyalar, usullar, malaka va operatsiyalarning ochiq tizimidir. Tafakkur uslubi bolalikdan tarkib topadi va inson umri davomida tajribaga asoslangan holda rivojlanib boradi. Shuning uchun har bir inson o'z hayotida shakllangan uslub doirasida fikr yuritadi, faqat ijodkor shaxslargina uni mukammallashtirishga, o'zgartirishga, yangicha fikrlashga qodir bo'ladi. Insonlarda tafakkur refleksiya-sini shakllantirish ularni yangicha inson, kreativ ijodkorga aylantiradi. Shunday ekan, talabalarni ham ijodkorlikka o'rgatish, mustaqil fikrlash refleksiya-sini shakllantirish, kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Bo'lajak shifokorlarda tafakkurning dialektik, sinergetik, idealistik, pragmatik, analitik, realistik kabi uslublarini shakllantirish bugungi ta'limning dolzarb masalasiga aylanmog'i zarur. Chunki mafkuralashtirilgan va materialistik tafakkurning qanday ekanligini va ijtimoiy foydasini xalqimiz ko'rdi va undan yetarlicha saboq oldi. Yaqin o'tmishda mafkuralashtirilgan ma'rifiy aqidalar ta'sirida bo'lsa-da, mamlakatda savodsizlik tugatildi, turli geografik mintaqalarda ko'plab madaniy, ma'rifiy ilmiy markazlar tarkib topdi. Qatag'on davri ziyolilari xalqni ma'rifatli qilishga o'zlarining munosib hissasini qo'shdi. Oliy ta'lim nafaqat yuksak malakali shifokorlar tayyorlash, balki talaba-yoshlarni yangiliklarni bilish, o'z-o'zini tarbiyalash, yangi dunyoviy bilimlar va kognitiv qadriyatlarni yaratish ruhida tarbiyalash, turli ilmiy maktablar yaratgan an'analarni rivojlantirishga intiluvchi salohiyatli shifokorlar tayyorlashga ham yo'naltirildi. Biroq, shunisi borki, kognitiv salohiyat sohiblari uzoq yillar hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilgan,

ko'pchiligi kommunistik tuzum g'oyalarini so'zda ma'qullasa ham, ich-ichidan ularni qabul qilmagan, kommunistik tuzum esa inson, millat va xalq erkinligiga, milliy tafakkur rivojlanishiga to'sqinlik qilib kelgan. Shunday ekan, qanday bo'lmasin, bo'lajak shifokorlarda kognitiv tafakkurni muntazam rivojlanishi joiz va, tabiiyki, bu taraqqiyotning qonuniy sharti hisoblanadi.

REFERENCES:

1. Norman, G. (2005). Research in clinical reasoning: past history and current trends. *Medical Education*, 39(4), 418–427.
2. Barrows, H. S. (1986). A taxonomy of problem-based learning methods. *Medical Education*, 20(6), 481–486.
3. Schmidt, H. G. (1983). Problem-based learning: rationale and description. *Medical Education*, 17(1), 11–16.
4. Croskerry, P. Clinical cognition and diagnostic error. – *BMJ Quality & Safety*, 2009. – 18(4): 321–323.